

O'zbek filologiyasi yo'nalishi 3-bosqich "B" guruh
talabasi

Ozodbekova Shalolaning tayyorlag

РЕФЕРАТИ

Mavzu: "Sharq yulduzi" jurnalidan 1991-2001-yillarda
chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar (bibliografik
ko'rsatkich va obzor)

O'qituvchi:M.Sheraliyeva

Andijon-2014

**“Sharqyulduzi” va “Yoshlik” jurnalida 1991- 2001-yillarda chop etilgan adabiy-
tanqidiy maqolalar. (bibliografik ko’rsatkich va obzor)**

Reja:

1. Kirish. “Sharq yulduzi” jurnalida 1991-2001-yillarda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarga umumiy tavsif.
2. “Sharq yulduzi” jurnalida 1991-2001-yillarda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarning bibliografik ko’rsatkichi.
3. “Yoshlik” jurnalida 2000-2011-yillarda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarning bibliografik ko’rsatkichi.

“Sharq yulduzi” jurnalida 1991-yil 2000-yillarda chop etilgan adabiy tanqidiy maqolalar
(biblografik ko’rsatkich)

1. “Sayha” qismatidan lavhalar yoki shoir Fitrat haqida. Hamidulla Boltaboyev. Sharq yulduzi; 1991\6

Maqolada Fitrat hayotiga chizgilar uning hayoti va ijodi, faoliyati haqida fikrlar yuritiladi. Yolg’iz forscha nazmdan tartib berilgan “Sayha” ning tasnifi beriladi. Bu kichik mulohazada shuningdek, Fitrat she’riyati, uning lirikasini nafis va buyuk Sharq she’riyatining bor go’zalliklarini to’yingan, uning o’ziga xos yangilikga kamarbasta she’rlardan tashkil topganligini muallif bayon qiladi.

2. Nasrdagi nazokat. Bahodir Karim. Sharq yulduzi; 1991\7

Maqola Xayriddin Sultonovning “Ko’ngil ozodadur” qossasi haqida bo’lib, yozuvchining quyida berilgan qissasining til birliklari va ular nimaga xizmat qilganliklarini, shuningdek, “Ko’ngil ozodadur” qissasini boshqa bir asarlariga qiyosiy o’rganib uni tahlil qiladi. Qissadagi Gulhaniy, G’ulom, Qunduz obrazlarini boshqalarga o’xshamagan tabiati, latif nazokatini so’z qudratiga berilishini ta’kidlab o’tadi.

3. Nasrdagi jozibadorlik. Ilhom Hasanov. Sharq yulduzi; 1991\9

Tog’ay Murod va Xayriddin sultonovning qissalaridagi bir-biriga o’xshamagan manzaralar haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Har ikkala adib qissalari adabiyotimizga insonga yondashuv bobida ancha ilgaridaligi, biroq hukron adabiy siyosiy qarashlar kurashiga dosh berolmay, u bilan kelishuvchilik siyosatini tutganligini aytib o’tadi.

4. Tabarruk topilma. Muzaffar Ahmedov. Sharq yulduzi; 1991\9

Ushbu maqolada muallif navoiyshunos olimi Suyima G’aniyeva bilan Alisher Navoiyning yangi topilgan devoni haqida suhbat olib boradi.

5. Shafolat yog’dusidan bahramandlik. Abdug’ani Rasulov Sharq yulduzi; 1991\10

Maqolada yoshlar qissalari haqida qaydlar qalamga olingan. Muallif Shuhrat Musoning “Rahna” , N. Norqobilovning “Ko’kto’nliklar” , Isajon Sultonovning “Munojot” qissalarini xato va kamchiliklarini, yutuqlariga baho beradi.

6. Oshkoralik ochgan imkonlar. Abdulla Ulug’ov Sharq yulduzi; 1991\5

Muallif maqolada kishi dilida ro'y beradigan turfa xil g'alayonlar, jarayoni Shukur Xolmirzayev, Xayriddin Sultonov. Erkin A'zam, Nazar Eshonqul hikoya-larida ro'y berayotganligini qayd etadi. Shuningdek, "Lolazor", "Chayon yili" asarlaridagi obrazlarni tanqid qiladi.

7. Muhim ma'naviy me'zon. Umrzoq O'ljaboyev. Sharq yulduzi; 1992\3
Ushbu maqolada Nurali Qobulning "Yashash uchun kechikma" qissasi, Sharofat Ashurovaning "Do'mbiram tilsiz emas" hikoyasi haqida tanqidiy fikrlar bildirilgan.

8. Faqat haqiqat oldida bo'yin egish bo'lsin. Umarali Normatov. Sharq yulduzi; 1992\10
Muallif Abdulla Qodiriy realizmiga xos asosiy jihatlarda, xususan, milliylikka, asl haqiqatlarni ochib beruvchi faktlarni bayon qiladi. Maqolada shuningdek, Qodiriy nasridagi o'ziga xosliklar, haqiqat asarning bosh va asosiy g'oyasi ekanligini ta'kidlab o'tadi. Uning romanlarida haqiqat yengilmas ruhda tasvirlanganligini aytib o'tadi.

9. Fitrat. Begali Qosimov. Sharq yulduzi; 1992\10
Maqolada Fitrat hayoti va ijodiga chizgilar chiziladi, batafsil ma'lumotlar beriladi. Uning "Sayha", "Chin sevis" va boshqa asarlari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, "Chin sevis" asari to'g'risida, uning janri, personajlarining o'ziga xosliklari haqida tanqidiy fikrlar bayon etiladi.

10. O'tmishning rangin lavhalari. Mahmud Sattorov. Sharq yulduzi; 1992\3
Maqola, asosan, keyingi yillar tarixiy asarlariga qisqacha bir nazar rukni asosida tanqid qilinadi. Unda adabiy tanqid e'tiborini tortmagan Mannop Egamberdiyevning "Sariq ajdar hammasi", Shahodat Isaxonovanning "Intiqom" qissalariga o'z bahosini muallif berib o'tadi.

11. O'kinch va o'tinch. Urfon Otajon. Sharq yulduzi; 1993\5-6
G'.G'ulom tavalludining 90 yilliga bag'shlangan bo'lib, unda ijodkor qalamiga mansub "Aylang" radifli g'azalni badiiyligi, mohirona ochib berilganligini ta'kidlab o'tadi.

12. Umidbaxsh tamoyillar. Umarali Normatov. Sharq yulduzi; 1993\10-12
Muallif maqolada adabiyotni yanada yuksaklashtirish uchun yaratilayotgan tamoyillar haqida fikrlar bildiradi. Umarali Normatov o'z maqolasida A.Oripovning "Fojia", E.Vohidovning

“Vatan umidi” she’rlari, Murod Muhammad Do’stning “Lolazor” , O’Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarlarda personajlar umri, faoliyatining ular amal qilgan aqidalarning, yashagan muhitning be’maniligiga alohida urg’ular berilgan deb ta’kidlanadi.

13. “Adabiyot yashasa-millat yashar...”. Ozod Sharafiddinov Sharq yulduzi; 1993\9
Cho’lponning adabiy-tanqidiy qarashlariga doir fikrlar bildirilgan.”Ulug’ hindu” “Adabiyot nadur?” , “Ashulaga ishqiboz “ maqolalariga to’xtalib o’tgan.

14. Yangi tuyg’ular tadriji. Musurmon Namoz. Sharq yulduzi;1993\9
20-asrning 70-yillaridagi ijodkorlar haqida , xususan, A.Oripov, R.Parfi, Xurshid Davron, Usmon Azim, Shavkat Rahmonlarning prozasiga e’tibor qaratib o’tgan.

15. Qodiriy jahon kezadi. Rahmatulla Inog’omov . Sharq yulduzi; 1994\3-4.
Ushbu maqola A.Qodiriy 100 yillik tavalludiga bag’ishlangan bo’lib, unda Qodiriy shaxsiyati, badiiyati va ruhiyati haqidagi fikrlarni ko’rishimiz mumkin. Shuningdek, muallif maqolada Xidir Deryayev, Muxtor Avezov, Sherali Turdiyevlar-ning tanqidiy fikrlariga to’xtalib o’tgan.

16. Ilk kurtaklar. Yo’ldosh Solijonov. Sharq yulduzi; 1994\3
Muallif maqolasi ham Qodiriy tavalludiga bag’ishlangan bo’lib, unda Qodiriy-ning ilk hikoyasi ”Juvonboz” haqidagi tanqidiy fikr-mulohazalar qalamga olinadi. Qodiriyning nasrdagi ilk qadami bo’lganligidan unda bir muncha kamchiliklar ham uchraganligini qator faktlar orqali bayon etadi.

17. Nazm hammavaqt hur. Ibrohim G’afurov. Sharq yulduzi; 1995\3-4.
Maqola Zulfiya tavalludining 80 yilligiga atab yozilgan . Muallif maqolada Zulfiya ijodiyoti, hayoti to’g’risida mulohazalar qalamga olingan. Zulfiya har qanday sharoitda ham matonat, ishq, mehnatni ulug’lab yashaganligini ta’kid-laydi. Adoqli she’rlar yaratib, shoirlarni she’riy musobaqaga chorlanganligini qatd etadi.

18. Xalq hayotining rangin manzaralari. O’tkir Hoshimov. Sharq yulduzi; 1995\5-6
Muallif maqolasining asosini Said Ahmadning hayoti va badiiy asarlariga oid mulohazalarga boydir. “Ufq” trilogiyasining ichki qurilmasi, tili, qahramonlar fe’l-atvori haqida asardagi milliy ohanglarning jozibadorligi, milliyligi to’g’ri-sida fikrlar bayon qilingan.

19. Fitrat va 20-asr boshlaridabiyotshunosligi. Hamidulla Boltaboyev. Sharq yulduzi; 1995\11-12.

Fitrat adabiyotshunoslikka oid “Adabiyot tarixi” , “Munozara” , “O’zbek adabiyoti na’munalari” kabi majmualar haqida mulohazalar bildirilgan. Fitrat-ning adabiyotshunos sifatida olib borgan tadqiqot ishlari va ularning keyingi davrlardagi ahamiyati haqida fikrlar qayd etilgan

Men “Sharq yulduzi “ jurnalining 1991-yildan 2000-yilgacha bo’lgan sonlarining “Adabiy tanqid” deb nomlangan sahifasini ko’rib chiqdim va o’rgandim. O’rganish jarayonida men ko’plab bilimlarga ega bo’ldim.

Adabiy tanqid badiiy o’zlashtirilish jarayonini o’rganuvchi va shu jarayonga faol ishtirok etuvchi, undagi oqimlarga ta’sir ko’rsatuvchiilm, o’ziga xos ijod turidir. Adabiy tanqid san’atkor mahoratining takomillashuviga , kitobxon estetik didining kamol topishiga ko’maklashishiga guvoh bo’ldim. O’zbek adabiy tanqidchiligi rang-barang, barakali, lekin murakkab , o’g’ir yo’lni bosib o’tdi.Undagi ijobiy va salbiy hodisalarni tarixiyliktalablari asosida haqqoniy tahlildan o’tkazish zarurligi, milliy mafkura asosida har bir badiiy asarning badiiy jihatdan to’laqonli tanqid qilish mustaqillik davri o’zbek tanqidchiligining bosh va asosiy vazifasi bo’lib qoldi. Chunki har bir ishimizda milliy mafkura asos bo’lishi zarur. Prezidentimiz I.Karimov : “milliy mafkura, avvalambor, o’zligimizni , muqaddasan’analirimizni anglash tuyg’ularini, xalqimizning ko’p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo’yilgan oiliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart” .

Eng muhimmi shundaki, yozuvchi qaysi davrda yashab ijod etgan bo’lmasin, asosiy maqsad: uning asarlarida hayot haqiqati qanday uslub va vositalar orqali qay darajada yoritilganligi yoki yoritilmaganligi; qanday to’laqonli , yangi obraz , xarakterlar yaratilganligi yoxud yaratilmaganligi ; bu obrazlar davr ruhini chuqur aks ettira olganmi yoki olmaganligi ;ular hozirgi zamonga qaysi qirralari bilan mushtarak bo’lib , o’quvchilar tafakkurini o’zgartirishga ishtirok etishi yoki etmasligini aniqlash ; nihoyat , bularning barchasi mohiyatini barkamol ilmiy-estetik tahlil orqali ko’rsatish tanqidchilikning diqqat markazida turishligini bilib oldim. Zero I.A.Krilov ta’kidlaganidek: “Tanqid faqat tanqidchilikning ko’rsatkich barmog’i bilan asarning kamchilik yutuqlari-ni ko’rsatishgina emas, balki uning nozik did , nafosat bilan yaratilganligini ko’rsatish hamdir.“

Men o’rganib chiqqan adabiy tanqidiy maqolalar asosini mustaqillik davrini o’z ichiga oladi.

Ilk mustaqillik davridagi adabiy tanqidiy maqolalar esa boshqa yillar uchun asos bo’lib xizmat qilganligini guvoh bo’ldim .

Sho'ro davri iskanjasidan va siyosatlashgan mafkura tazyiqidan qutulgan badiiy tafakkur erkin ijod yo'liga o'tganligi va adabiy tanqid badiiy asarlarga milliy g'oya va umumbashariy mezonlar asosida baho bera boshlaganligini maqolalarda ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, Usmon Nosir Behbudiy hayoti va ijodini asl, tarixiy jihatdan haqqoniy ko'rinishda tadqiq etish adabiyotshunoslik va tanqidning dolzarb masalalariga aylandi. H.H.Niyoziy, G'.G'ulom, H.Olimjon, Oybek, A.Qahhor kabi san'atkorlar asarlarini qayta va xolis baholashga o'tildi. Mustaqillik yillarida tarixiy-biografik tadqiqotlar yaratishga e'tibor kuchaydi. M. Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, A.Rasulov, I.Haqqulov singari adabiyotshunoslar 20-asr yozuvchilari haqida qator sermazmun maqolalar, tadqiqotlar yaratdilar. Ularning safiga B.Karimov, D.Quronov, H. Boltaboyev, Sh.G'oziyeva, R.Inog'omov, I.G'afirov, U.Hamdani kabi avlod vakillari o'zlarining yangi-yangi salmoqli izlanishlari bilan keilib qo'shilganligini ta'kidlash joiz.

Begali Qosimov boshlab bergan Fitrat hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqoti H.Boltaboyev va Sh.G'oziyevlarning 1995-96-yillardagi maqolalari da davom ettirilib yuksak darajada ochib berildi. Bundan ko'rinib turibdiki, istiqlol davrida fitratshunoslik yangi bosqichga ko'tarildi. Eng muhimi, Fitrat ijodini o'rganishda xolislik, teranlik, matn bilan ishlash yetakchi prinsipga aylandi.

Shuningdek, bu davrda qodiriyshunoslik, cho'lponshunoslik taraqqiy etdi. Ularning ijodiga estetik talqin sifatida ko'proq e'tibor qilindi. O.Sharafiddinov, N.Karimovlarning "Cho'lpon" nomli tadqiqotlari, "Cho'lpon dunyosi" nomli maqolalar to'plami e'lon qilindi.

Cho'lponning dunyoqarasi va ijodining g'oyaviy motivini belgilashda uning millatparvarligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, asarlarini talqin qilish adabiy tanqid metodologiyasining nuqtai nazaridan kelib chiqib, asarlarini talqin qilish adabiy tanqid metodologiyasining yangilanyotganligidan dalolat beradi. Cho'lpon hayotini, uning ijtimoiy faoliyatini, ijodi, ayniqsa, asarlarining g'oyaviy motivlari bilan bog'liq holda talqin etish bu davr tanqidchiligining muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Adabiyotshunos D.Quronov Cho'lponning "Adabiyot nadur? "degan mangu savolini o'rta qo'yarkan, mazkur savolga turli davrlarda turlicha javob berilganligini, biroq bugungi kunda ham ushbu savol kun tartibidagi asosiy masala bo'lib qolayotganligini ta'kidlaydi va ularga o'z munosabatini bildiradi. Shuningdek, D.Quronovning "Yo'l esdaligi" da tagma'no qatlamiga doir" maqolasida safarnoma va uning g'oyaviy-badiiy jihatlariga to'xtalib o'tganligini guvoh bo'lamiz. Cho'lpon ijodidagi "sevgi"- yurt ozodligi, erkinligini o'zida jo etgan badiiy obraz ekanligini asoslab berdi.

Istiqlol davri tanqidchiligida yana bir o'lmas adibimiz, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy asarlarining o'rganilmagan jihatlari davr nuqtai nazaridan chetga chiqib qolgan badiiy va shaxsiyatiga oid tadqiqotlar asosiy o'ringa chiqdi. Shu o'rinda istiqlolning ilk yillarida

U.Normatovning “Faqat haqiqat oldida bo’yin egish bo’lsin” deb nomlangan maqolasini misol qilishimiz mumkin.1994-yilga kelib Qodiriy tavalludining 100 yilligi bilan matbuotda ko’plab maqolalar, esselar, monografiyalar e’lon qilindi.Xususan, “Sharq yulduzi” ning ushbu yilgi sonlarida Rahmatulla Inog’omovning “Qodiriy jahon kezadi” , Yo’ldosh Solijonovning “Ilk kurtaklar” deb nom olgan maqolalari nashr etilib,o’quvchilarga Qodiriy ijodiyotini o’rganishimizga, uning shaxsiyatiga doir haqqoniy faktlarni olishimizga dasturamal bo’lishganligini qayd etish lozim.

Xullas, mustaqillik davri o’zbek tanqidchiligi yangi bir bosqichga o’tganligini yangigacha badiiy-estetik jihatdan rivojlanganligini ko’rishimiz mumkin. Yangi yosh munaqqidlar adabiyot olamiga kirganligini,ular badiiy asarlarga haqiqiy baho berganligi esa mustaqillik davrining asosiy yutuqlaridan biridir.

20.Navoiy nasrida islom zuhuri. Dilorom Salohiy. Sharq yulduzi; 1997\1

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” , “Nasoyim ul-muhabbat “ , “Tarixi anbiyo va hukamo” , “Munojat” kabi ma’rifiy asarlaridagi insoniy fazilatlar kasb etilganliginimuallif tomonidan yoritiladi.Asarlardagi insoniy fazilatlarga oid fikrlarga yuksak baho berilganligini aytib o’tadi.

21.Xolislik xosiyati . Umarali Normatov. Sharq yulduzi; 1997\4.

Hamzaning “Paranji sirlari”dramasi xususida bo’lib, asarning umrboqiyligi, tasvirdagi xolislik jihatlariga to’xtalib o’tgan.”Zulmat ichidagi bir nur va nurdek pok” deb ta’riflangan Xolisxon obraziga baho beriladi.Maqola muallifi asarning asosiy personaji ekanligini o’zbek ayolining tipik timsoli sifatida yorqin tasvirlanganligini qayd etadi.

22.Tugallanmagan hikoya tarixi. Nasiba Ziyodullayeva. Sharq yulduzu;1997\5

Abdulla Qahhor tavalludining 90-yilligiga bagishlangan bo’lib , A.Qahhorning “Go’zal” deb nomlangan hikoyasining yozilishi va tugallanmay qolganligini bayon etadi.Hikoya janridagi

bu asar qo'lyozma sifatida qolib ketganligini, asar nima uchun "Go'zal" deb nomlanganligini, shuningdek, asar g'oyasi yillar davomida Abdulla Qahhor tomonidan yangilanib turganligini bayon etadi.

23. Milliy adabiyotning ikki ildizi. Bozor ilyos al-Amin. Sharq yulduzi; 1998\1

Ushbu maqolada muallif badiiy tarjima ikki ma'daniyat, ikki lison va ikki ilhom farzandi sifatida milliy adabiyotning mazmuni hamda shaklini boyitishi ta'kidlanadi. Bugungi tarjimachilik haqida fikr-mulohazalar bildiradi.

24. "Yo'l esdaligi" da tagma'no qatlamoga doir. Dilmurod Quronov. Sharq yulduzi; 1998\1

Cho'lponning "Yo'l esdaligi" nomli safarnomasidagi tagma'no qatlamiga to'xtalib o'tadi. Sevgi- yurt ozodligi, erkinlik istagi ekanligini dalillar yordami-da asoslab Cho'lponni simvolist shoir ekanligini qayd etadi. Shuningdek, muallif "Yo'l esdaligi" dagi boshqa timsollarning haqiqiy ma'nosi nima ekanligini Cho'lpon shaxsiyati asosida ochib beradi.

25. "Bir yavmi saodatdi..." Rustamjon Tojiboyev. Sharq yulduzi; 1998\1

Serqirra ijodkor Ibrohim Davron hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'ib, uning "Ash'ori nisvon" deb nomlangan to'plami haqida tanqidiy fikr-mulohazalar qalamga olingan.

26. Gavharshod begim saboqlari. Yulduz Karimova. Sharq yulduzi; 1998\2

Ushbu maqolada P. Qodirovning "Ona lochin vidosi" asaridagi Gavharshod-begim obraziga chizgilar chiziladi. Gavharshod begimning Ona lochin haqidagi hikoyasining berilishi va uning ahamiyati to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

27. Tabiat tasviri. Ma'ruf Yo'ldoshev. Sharq yulduzi; 1998\5

Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridagi peyzajlar, ya'ni tabiat manzaralari haqida bo'lib, adib tabiat tasvirini chizish jarayonida jonlantirish san'atiga ko'p murojaat qilganligini va mohirlik bilan foydalanganligini qayd etadi. Asarning o'lmasligi ham ana shu peyzaj tasvir ekanligini va qahramonlarning o'ziga xosligidadir deb qayd etib o'tadi.

28.O'zgarayotgan adabiyot manzaralari. Abdulla Ulug'ov. Sharq yulduzi;1998\6

Muallif maqolada Abduqayum Yo'ldoshning "Katta o'yin", Nabi Jaloliddin "Yig'i" qissasining bosh qahramonlarini bir-biriga qiyoslab, farqli jihatlarini ochib beradi.Shuningdek, Sh.Xolmirzayevning "Bulut to'sgan oy" hikoyasida inson qalbidagi yevrilishlarni juda ishonarli ifoda qilinganligini bayon etadi.Xullaz maqolada bugungi nasrning faol ijodkorlarning qahramonlarini bir-biriga o'xshash va farqli jihatlariga to'xtalib o'tadi.

29.Dramaturg mahorati. Kamola Ibrohimova Sharq yulduzi;1998\6

Sharof Boshbekovning dramaturgiyasining o'ziga xos jihatlaridan biri tasvir va bayonda ramzli hikoyatlar shaklida foydalanishda ekanligini ta'kidlab o'tadi. "Temir xotin" pyesasining aytmoqchi bo'lgan kuchli dardni badiiy ifodalay oluvchi shaklini topa olganligini bayon etadi.Satirik kulgi ostida qattiq bir dard yotganligini sodda va keng mushohadaligini qalamga oladi.

30.Yangi lirikada Vatan tuyg'usi. Yashar Qosim. Sharq yulduzi;1998\6

Muallif maqolada Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfilar ijodidagi Vatan motivi, vatanparvarlik tuyg'ularini aks ettirishini qalamga oladi.Erkin Vohidovning ijodidagi Vatan tuyg'usini o'zida jo etgan she'rlarini badiiy qimmatini haqida fikr-mulohazalar bildirib o'tadi.

31.Adolat-ruhiyat manzili. Safter Nagayev.Sharq yulduzi;1991\1

Maqolada I.Gasprinskiy va Cho'lpon hayoti, ijodiga chizgilar chiziladi.Ashraf Sham'izodaning Cho'lpon bilan uchrashuvlarini qayd etadi, sobiq sho'rolar davrida uning shaxsiga bo'lgan qarashlar haqida fikr bildiriladi.

32.Shavkat Rahmon she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyati. Ra'no Mullaxo'jayeva. Sharq yulduzi;1999\3

Shavkat Rahmon she'rlari shoirning baxti-yu baxtsizligi ekanligini, dunyoning, yashash mohiyatini chuqur angladi,konglida hech kim yetolmas, sarhadlarga nazar tashlashda cho'chimaganligini va bularning hammasini o'zgagalarga anglatish ilinjida yashashganligini ta'kidlab o'tadi.Shoir she'rlarida asosan falsafiy fikrlar borligini, uning she'rini tushunish uchun falsafiy mushohada yuritishni bilsh kerakligini qayd etadi.

33. Badiiyat talqinlari. Yusufali Shohnazarov. Sharq yulduzi; 1999\5

Ushbu maqolada A.Qodiriyning badiiyati haqida chop etilgan maqolalarini bir-biriga qiyoslab o'rganib chiqadi.Hozirgi paytda Qodiriy asarlari badiiyatini “o'z holicha” talqin qilishning keng yo'l ochib berganligini bayon etadi.Mustaqillik tufayli Qodiriy ijodiyotini o'rganish yanada kuchayganini bildirib o'tadi.

34. “Mehrobdan chayon”ni o'rganish. Bahodir Karim. Sharq yulduzi;1999\5

Muallif maqolada Oybek, Izzat Sultonlar “Mehrobdan chayon” asaridagi bir qator qahramon va epizodlarini kuzatib chiqqanligini, tanqidiy qarashlarini bayon etadi. Shuningdek asr haqida o'z fikr va mulohazalari bildiradi. Oybek, Izzat Sultonlar davr nuqtai nazardan bir yoqlama tanqidiy fikrlar bildirganligini qalamga oladi.

35. Solihlarga rahnamo pir. Bahodir Nazarov. Sharq yulduzi; 1999\6

Maqomist-dil sharhi va shayx siymosi qalamga olinadi.”Maqomati Bahouddin Naqshband” risolasi, Naqshband Hazratlarining hayoti va faoliyati haqida hikoya qilinganligini, asar to'rt qismdan iborat ekanligini qayd etadi.

36.Qadamning takomil yo'li. Erkin Samandar. Sharq yulduzi; 1999\6

Adabiy suhbat tarzidagi maqola bo'lib taniqli adib Abduqahhor Ibrohimovning hayot yo'li va uning qalamiga mansub asarlar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

37. Umri uvollar qissasi. Abdug'afur Rasulov. Sharq yulduzi; 1999\6

Ushbu maqolada muallif istiqlol davri o'zbek nasrini boyitayotgan iste'dodli adiblardan biri Shoyim Bo'tayevning asarlari, xususan, “Sho'rodan qolgan odamlar” qissasidagi badiiy g'oya taqdirlar tarixi, katta-yu kichik timsollarning xatti-harakatlari, xarakterlarida o'ziga xosligini ochib berishga harakat qilgan.

38. 60-70-yillar adabiy tanqidchiligi tarixiga bir Boynazar Yo'ldoshev. Sharq yulduzi; 1999\6

Muallif maqolada 60-70-yillardagi munaqqidlarning tanqidiy maqolalari va ular-ning ahamiyati haqida fikr bildiradi. Jumladan, O.Sharaffidinov va Matyoqub Qo'shjonovning shu davrdagi maqolalarida ko'ringan umumiy va o'ziga xosliklarni qalamga oladi.

39. Ilohiy kechinmalar shavqi. Jumagul Suvonova. Sharq yulduzi; 1999\6

Usmon Azim she'riyatidagi lirik kechinma va shoirning “Tazarru bog'lari” nomli turkumidan o'rin olgan she'rlarini badiiy va g'oyaviy tahlili beriladi.

40. “Riyoʻzud davla” adiblar xususida. Omonulla Mutalov. Sharq yulduzi; 2000\1

Maqolada muallif Ogahiyning “Riyoʻzud davla” sari haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, asarda o’rin olgan o’sha davrning mashhur ijodkorlari haqida ma’lumotlarni topishimiz mumkinligini ta’kidlab o’tadi.

41. Tarixiy shaxs talqini va ruhiy tasvir imkoniyatlari. Ra’no Sodiqova. Sharq yulduzi; 2000\1

Ushbu maqolada To’lan Nizomning Mashrab mavzuiga qo’l urishining sabablaridan biri tarixiy shaxs Mashrabga yaqin bo’lgan badiiy timsol yaratish ekanligini bayon etadi. To’lan Nizomning badiiy mahoratini qalamga oladi.

42. Jadid qahramonining nasrga kirib kelishi. Abdusamad To’ychiyev. Sharq yulduzi; 2000\1

Jadidchilik harakatining badiiy adabiyotga ta’siri, jadid obraziga dastlabki chizgi-lar Cho’lpon ijodida “Do’xtur Muhammaddiyor” hikoyasida uchrashi Niyoziyning

“Yangi saodat-yoxud milliy roman” asaridagi Olimjon obrazi misolida jadid obrazi borligini bayon etadi.

43. Navoiy va Bobur. Nilufar Muhammadiyeva. Sharq yulduzi; 2000\3.

Maqolada Navoiy va Bobur g’azaliyoti, badiiyati haqida fikrlar bildiriladi. Bobur Samarqandni ikkinchi marta egallagandan keyin Navoiydan xat olganligini, Bobur Navoiy an’alarini davom ettirib, boyitganligini ta’kidlab o’tadi.

44. “Nuri haqdin kimyo topsam kerak”. Zokir Xudoyqulov. Sharq yulduzi; 2000\4

Maqola tasavvuf yo’nalishda shuhrat qozongan Mashrab va Mansur Halloj badiiyati va hayotini qiyoslab yozilgan. Mashrab Mansur Hallojning izdoshi, mas-lakdoshi ekanligini baytlar misolida bayon etadi.

45. Ruhiyatdagi inqilob. Muhayyo Hamidova. Sharq yulduzi; 2000\5

Shukur Xolmirzayevning “Olabo’ji” asarida kechagi kun dahshatlari, ma’naviy axloqiy tanazzul xalqimiz erksizligi, loqaydligi ochiq oshkora ko’rsatib berilganligi qalamga olinadi. Asardagi obrazlarning ichki tug’yonlarini ochib berganligini qayd etib asarga tanqidiy baho beradi.

46. Ishq tavajjuhi. Shavkat Hasanov. Sharq yulduzi; 2000\6

She'riyat mumtoz mohiyatni zamonaviy shaklda izhor qilib kelayotgan Asqar Mahlumning "Ishq" , "Tavajjuh" dostonlarining badiiyati ochib berilgan Dostonning badiiy qiymati va g'oyaviy jihatlarini baytlar tahlili yordamida sharx qilingan.

47. Jalil Hazratqulov. Adibning muhtasham "Ulug' saltanati". Sharq yulduzi; 2013\2

Maqola Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi haqida. Jahongir Mirzo , Umarshayh mirzo va Mironshoh Mirzolarining hayotini o'zida aks etgan tetralogiyadagi obrazlar haqida fikrlar bildiradi. Tetralogiyada qahramonlar yo odati, yo so'zi , umuman, xarakteri bilan bir-biridan ajralib turishi, ularni sira adashtirib yubormasligimiz muallif yozuvchiningo'z qahramonlarini tip darajasiga ko'tarishga, obrazlarni puhta ishlashga, alohida ahamiyat berganligini ta'kidlab o'tadi.

48. Oybek, oy va koinot yoxud darveshlik rutbasi. Abdulla Sher. Sharq yulduzi; 2013\4.

Oybek-ekstravest ijodkor , ya'ni o'z qarashlari uslubi va asari mazmunining tashqi muhit ehtiyojlariga mos bo'lishini ongli ravishda ta'minlagan, she'riy qalami yetovidan tutgan, she'rining "xo'jayini"ga aylangan shoir ekanligini ta'kidlab o'tadi. Shoir she'rlaridagi oy, koinot. darveshlik timsollarini sharhlab beradi va Oybek taxallusini bejiz olmaganligini aytadi.

49. "Bir qushcha sayraydi mening ruhimda" Olim Oltinbek. Sharq yulduzi; 2013\4

Muallif maqolada Rauf Parfi ijodiyoti haqida fikrlarni bayon etadi. She'rlaridagi qush timsoliga oid fikr-mulohazalar bildiradi.

"Yoshlik" jurnalida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar:

50. Karvon qo'ng'irog'i sadolari. Abduhamid Shermuhammedov. Yoshlik; 2000\3

Muallif maqolada buyuk bobolarimiz faoliyatiga oid badiiy-tarixiy asarlar yozishgan yozuvchilarimiz haqida fikrlar bildiradi. Jumladan, I, Mo'monov, Bo'riboy Ahmedov, Abdulla Oripov, Odil Yoqubov kabi olimlar, yozuvchi va shoirlar Amir Temur ijodiga oid tarixiy, badiiy jihatdan qimmatli asarlar yaratilganligini aytib o'tadi. Hurshid Davron ham Temur saltanatining tarixini chuqur o'rganib "Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston" , "Amir Temir o'g'lining o'limi haqida rivoyat" kabi tarixiy-ma'rifiy badialar yozganligini qayd etadi. Muallif qissasida Ulug'bekning tug'ilishi bilan bog'liq voqealarga alohida urg'u berganligini, asarda Sohibqiron shaxsiyati , uning sarkardalik bobidagi ulkan mahoratiga

tarixiy nuqtai nazardan yondashganligini bayon etadi. Yozuvchi o'z kitobida Amir Temur abadiyatiga chuqur ehtirom bilan qarab uning dunyo miqyosiga teng shon-shavkatini sarkardalik mahoratini ishonarli tasvirlanganligi ta'kidlab o'tadi.

51. Zokir Xudoyshekur. Ishq kamolot kaliti. Yoshlik; 2000\4

Maqolada muallif ishqni bosh yalovbardori etgan shoirlardan Fuzuliy, Pahlovon Mahmud, Jaloliddin Rumi ijodidagi asarlardan parchalar va tahlillarni berib o'tadi. Har ijodkorning badiiy mahoratiga to'xtalib qayd etadi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra Olam ham Odam ham ishq tufayli yaralganligini,, ishq tufayli barqaror va bir kuni adam sari yuz tutsa bunga ham ishq sabab bo'lishini qalamga oladi. Har bir jodkorning o'lmas g'azallari ham ishq tufayli paydo bo'lganligini bayon etadi.

52. Sog'inchlarga Vatan ko'ngil. Ilhonbek Qurbonboyev. Yoshlik; 2001\2.

Maqolada she'r va uning inson ma'naviyatiga ta'siri haqidagi mulohazalar Bahrom Ro'zimuhammad she'rlari orqali bayon qilinadi. Shoir modern uslubda ijod qiladigan shoirlardan biri ekanligi, uning g'oyaviy-badiiy talqinlari ham tajriba maydonida ham ilhom manbasi hisoblanganligini qalamga oladi. B.Ro'zimuhammad voqelik shoiri, voqelikning xolis tajribali faylasuf sharxchisi, voqelikning teran sharhini anglay olishimizga yordam berishini , shoirning she'rlari falsafiy she'rlar emas, balki borliqni to'g'ri tushunish va tushuntirishga qodir shoir ekanligini qalamga oladi.

53. Shakl va mazmun mutanosibligi. Nazira Toshpo'latova. Yoshlik; 2001\2

Maqolada adabiyotda shakl va mazmun haqida fikr-mulohazalar berilgan. B.Sarimsoqovning shu nomdagi maqolasidagi fikrlarga o'z bahosini va mulohazalarini nildirib o'tadi.

54. Istiqlof fidoyilari. Qobil Kubayev. Yoshlik; 2001\2

Ushbu maqolada .asosan, tarixit qissalar haqida fikrlar bayon qilingan. Xususan, SH.Isaxonovning "Intiqom" qissasi, "O'tror" , "Mahmud Torobiy" Isfandiyorning "Qasamyod" qissalarining badiiy-g'oyaviy jihatlarini ochib beradi. Jumladan, SH.Isaxonovning "Intiqom" qissasining bosh qahramoni Jaloliddin Manguberdi obrazining ichki kechinmasining holatini yorqin darajada tasvirlanganligini ta'kidlab o'tadi.

55. Kamiy oq podshoning maddohi edimi? Olim Oltinbek. Yoshlik; 2001\2

Maqolada shu savol o'rtaga qo'yiladi va Kamiyning bir qancha she'rlarini tahlil qilib uni u haqiqiy ma'noda ma'rifatparvar shoir ekanligini aytib o'tadi. Bu kabi savollar noto'g'ri ekanligini qator she'rlari orqali isbotlab beradi.

56. Ma'naviy musaffolik talqini. Damin To'rayev. Yoshlik; 2001\3-4.

Asqad Muxtor she'riyati haqida bo'lib, uning talaygina she'rlarida umrning o'tkinchiligi, lekin shu o'tar-ketar umrda buyuk ishlarga ulgurib qolish kerakligi haqidagi fikr-mulohazalarni bildirib o'tadi. Xususan, "Tonglar izsiz o'tdi" she'rida ham loqaydlik qoralanganligini, "Telba daryo" nomli she'rida esa hayotga chanqoq sadolari tinglagandek bo'lishimiz mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek shoirning "Ko'ngil", "Vaqt" she'rlarini ham badiiy g'oyasini ochib berishga harakat qiladi.

57. Ijodiy ta'sir ko'chkisi. Alimardon Hayitov. Yoshlik; 2001\5.

Sharq mumtoz adabiyotida moddiy olam unsurlaridan –oy, quyosh, yulduzlar, inson a'zolaridan lab, yanoq kamon qosh, nayzadek kipriklar, uzun qora soch kabilar har bir shoir jodida uchrashi, xususan, bugungi kun shoirlardan Shavkat Rahmon, Abdulla Oripov, Bahrom Ro'zimuhammad, Zebo Mirzayeva, Faxriyor ijodida ham uchrayotganligini qayd etladi. Shoirlardan Zebo Mirzayeva oy qiz ko'zgusining siniq parchasi" deya atasa, Vafo Fayzullo oyni "do'ppisiz" xatto "o'g'ri oy" sifatida ataganligini bayon etadi.

58. O'zbekona nasr ustasi. Otabek Jo'raboyev. Yoshlik; 2001\5-6

Adabiyotning atomdan kuchli ekanligini e'tirof etgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodiga chizgilar chiziladi. Muallif uning mahorati haqida quyidagilarni aytib o'tadi; xalq tafakkuridagi sermag'iz mulohazalarni o'z qahramonlari nutqiga joylay olgan, xuddi shu gap yoki ibora obraz portertidagi eng qora nuqtalarni ham yoritib turadi deya baho beradi.

59. Tarjima mahorati. Zilola Xudoyberdiyeva. Yoshlik; 2001\5-6.

Maqolada I. Karimov asarlari, A. Oripovning she'rlari, A. Qodiriyning romanlari. O. Yoqubovning "Ko'hna dunyo", "Adolat manzili" romanlarini tarjima qilinganligini madaniy voqea sifatida baholash o'rinli ekanligini qalamga oladi. Odil Yoqubovning asarlari avval turk tiliga tarjima qilinganligini, endigi hal etilishi lozim bo'lgan masala amalga oshirilgan tarjimaning saviyasi va darajasini tadqiqdan o'tkazish hamda munosib bahosini berishdir deb

aytib o'tadi. Asarni tarjima variantini tadqiq etib uni yetarli darajada tarjima qilinmaganligini, bir qancha uslubiy xatolarga yo'l qo'rganligini, asar tili ustida yana bir bor ter to'kish zaruriyati borligini ko'rsatib beradi.

60.Ulkan asarga kichik nazar. Perdaboy Nurjonov. Yoshlik; 2009\1

Maqolada iste'dodli adib O'rozboy Abdurahmonovning "Ostona" romanidagi qahramonlarning fe'l-atvori, xarakteriga oid fikrlar bildirilgan. Asar chuqur realizm ruhi bilan sug'orilganligini yozuvchi o'sha tuzum kirdikorlarini yorqin, ta'sirchan badiiy bo'yoqlarda chiza olganligini qalamga oladi. "Ostona"qahramonlari-To'raboy, Guljon, Asiya, Muftulla va boshqa obrazlar shundoqqina kitobxon ko'z o'ngida jonlanib turadi, o'z xatti-harakatlari, qiyofalari bilan zavq-shafq ulashishi haqida fikrlar bildirilgan.

61.Ziyoga undovchi asar. Rustam Mannopov. Yoshlik; 2009\2

Muaalif maqolada Hurshid Do'stmuhammad "Bozor" romani haqidadir. Maqolada romanda hayot muammolari, sevgi-muhabbat, insoniy qadriyatlar bilan boyiltirilganligini qayd etadi. Romanda o'nlab xarakterlar ishtirok etilishi romanni mazmunini boyitishda xizmat qilganligini qalamga oladi. Roman keyingi davrda yaratilgan asarlar ichida jiddiy asarlar safiga kirishini bayon qiladi.Baxtish, Bon, Suu, Hodivoy pattachi kabi obrazlarni katta vazifa bajarishini va asarning mazmunini boyitishdagi hissalarini aytib o'tadi.

62.Hayotning haqqoniy manzaralari.Abdulla Ulug'ov. Yoshlik; 2009\3

Zulfiya Qurolboy qizi ijodiyoti haqida bo'lib, unda adibaning faol ijod qilayotgan adibalardan biri ekanligini aytib o'tadi. Uning qalamiga mansub "Tafakkur" hikoyasi hayot qarama-qarshiliklarini to'laligicha ochib berilganligi bilan boshqa asarlardan farq qilishini bayon etadi. Shuningdek, inson qismati chigalliklarini ko'rsatish jihatidan keyingi davrda adabiyotimizdagi jiddiy hodisalardan biri bo'lganligini qayd etadi. "Ayol", "O, hayot" , "Ayol qiyofasidagi ajal" singari hikoyalari azob-u izzatoblarni, fojialarni juda ta'sirchan gavalantirishi bilan diqqatni jalb qilishini alohida ta'kidlab o'tadi.

63."Buyurdimkim, meni podshoh degaylar" Habibulla Jo'rayev. Yoshlik; 2009\5

Maqolada toj-u taxtning otadan bolaga o'tishi ya'ni vorislikning qonuniyligi fanda legitimizm deb nomlanishi va shu tarzda namoyon bo'lgan asarlar haqida mulohazalar bildirilgan. Legitizmga munosabat yozma adabiyotda ham ko'plab akke etganligi, bunga misol tariqasida quyidagi asarlarni keltirishimiz mumkinligini qayd etadi. Xususan, "Boburnoma" da mavzuga aloqador qiziqarli faktlar borligini bayon etadi. Legitizmdan g'oyaviy maqsad yo'lida foydalanishni Qo'qon xonligi tarixida so'ngi marta Po'latxon qo'zg'oloni misolida ko'rishimiz

mumkin. Asli ismi Mulla Is'hoq bo'lgan bu zot shahzoda Po'latxon nomini olib, taxtni egallamoqchi, turli bosqinchilar va mahalliy hukmdorlar zulmidan yurak oldirib qo'ygan xalqni birlashtirmoqchi bo'lgan edi deb faktlar bergan.

64.Uyg'oqlikka da'vatkor ijodkor. Gulandom Tog'ayeva. Yoshlik; 2009\6.

Maqolada muallif H.X.Niyoziy hayoti va badiiyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Mustaqillik yillarigacha shoir ijodiyoti bir tomonlama subyektiv yondashuv mavjud bo'lganligini, ammo Hamza ijodining ruhiyatiga , ichki mazmuniga chuqur nazar tashlasak, istiqlol yillaridan keyingi davrlarda o'rganila boshlanganligini ta'kidlab o'tadi. "Dardiga darmon istamas" she'ridagi g'oyaviy mazmunini ochib berishga harakat qiladi. Shuningdek, "Yig'la Turkiston" nomli sheri katta falsafiy mazmunni ifodalishini bayon etadi.

65.Davr va shaxs fojiasi talqini. Dilibar Saydaxmetova. Yoshlik; 2011\11-12.

Maqolada qissalardagi tarixiy haqiqatlar haqida mulohazalar bildiriladi. Qissa tarixiy haqiqat yoritilgan rasmiy hujjat emas. Uinson ruhiyatining evrilishi-u taftish va kurashlariga boy. O'z qismati hayoti haqida o'ylashga , o'z-o'zini tahlil qilishga undovchi asarlardir deb bir qncha asarlarga o'z bahosini beradi. Asarlardagi ana shu masala ustida so'z yuritiladi.

66. Yangi talqinlar. Shoira Doniyorova. Yoshlik; 2011\8.

Ushbu maqolada Omon Muxtor o'zining yangicha mazmun va tasviri bilan ajralib turmoqda va keyingi davrning romanchiligida turli baxslarga sabab bo'layotganligini haqida fikrlar bayon qilingan. Adibning "Ming bir qiyofa" romani haqida batafsil ma'lumotlar berilgan .Ya'ni asarning birinchi hikoyasi "Tutqin" deb nomlanganligini ta'kidlab o'tadi.